

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.A.Mamajonov</b> O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati .....	545
<b>B.A.Pulatov</b> Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari .....	548
<b>K.I.Marayimova</b> Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ...	552
<b>N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva</b> Talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirish usullari .....	557
<b>D.I.Asqarova</b> Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari .....	561
<b>M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari .....	569
<b>M.Q.Jabborova</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish omillari .....	572

---

FALSAFA

<b>A.A.A.Qambarov</b> "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari .....	579
<b>I.M.Arzimatova</b> Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'rnini .....	583
<b>D.E.Normatova</b> Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati .....	588
<b>I.A.Asatulloev</b> Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili .....	593
<b>T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov</b> Korrupsiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limiy jihatlari .....	597
<b>S.S.Evatov</b> Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdagi o'rnini .....	602
<b>I.Y.Toirov</b> Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarni o'rganish muammolari .....	606
<b>A.M.Rasulov</b> Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili .....	610
<b>A.A.Sayitxonov</b> Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'rnini .....	614
<b>F.A.Yuldashev</b> Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests .....	618
<b>S.P.Tojiboyev</b> Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili .....	625
<b>B.X.Mirzaraximov, B.T.Shokirov</b> Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari .....	631
<b>M.A.Abduxamidov</b> Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlariga munosabatining tahlili .....	635

---

SIYOSAT

<b>J.A.Dadaboyeva</b> Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari .....	638
<b>A.A.G'aniyev</b> Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati .....	643

---

TARIX

<b>B.A.Usmonov</b> "Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir .....	648
--	-----



UO'K: 101.1:316:001.102(575.1)

## AXBOROT VA AXBOROT MAKONI TUSHUNCHASI, ULARNING FALSAFIY TAHLILI

## ПОНЯТИЕ ИНФОРМАЦИИ И ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА, ИХ ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

## CONCEPT OF INFORMATION AND INFORMATION SPACE, THEIR PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich 

Farg'ona davlat universiteti, falsafa va milliy g'oya kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada "Axborot" tushunchasi falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy dunyoda materiya atributi sifatida axborotning umumfalsafiy muammosi yechimi tadqiq etiladi. Shuningdek, bu masala atributiv va funksional yondashuvlar o'rtasidagi bahslar mavzuni tashkil etib, funksional yondashuv tarafdorlari axborot fenomenini bilish subyektining mavjudligi bilan bog'lab, uning noorganik tizimlar darajasida funksionalligini rad etadi. Atributiv yondashuv tarafdorlarining axborot – umumiy xarakteristika, organik va noorganik tabiat materiyasining atributi, degan xulosalari bayon etilgan.

**Аннотация**

В статье анализируется понятие «Информация» с философской точки зрения. Исследуется решение общеприкладной проблемы информации как атрибута материи в современном мире. Также этот вопрос, в свою очередь, является предметом споров между атрибутивным и функциональным подходами, сторонники функционального подхода связывают феномен информации с существованием предмета познания, отвергая его функциональность на уровне неорганических систем. Изложены выводы сторонников атрибутивного подхода о том, что информация является общей характеристикой, атрибутом органической и неорганической природной материи.

**Abstract**

The article analyzes the concept of «Information» from a philosophical point of view. The solution to the general philosophical problem of information as an attribute of matter in the modern world is researched. Also, this issue, in turn, is the subject of debates between attributive and functional approaches; supporters of the functional approach associate the phenomenon of information with the existence of the subject of knowledge, rejecting its functionality at the level of inorganic systems. The conclusions of the supporters of the attributive approach that information is a general characteristic, an attribute of organic and inorganic natural matter, are stated.

**Kalit so'zlar.** Axborot makoni, axborot inqilobi, axborotlashtirish, kibernetika, atributiv yondashuv, M.Eygen, R.Xartli, davlat siyosati, islohotlar, elektron hukumat.

**Ключевые слова.** Информационное пространство, информационная революция, информатизация, кибернетика, атрибутивный подход, М. Эйген, Р. Хартли, государственная политика, реформы, электронное правительство.

**Key words.** Information space, information revolution, informatization, cybernetics, attributive approach, M. Eygen, R. Hartley, public policy, reforms, electronic government.

**KIRISH**

Bugungi axborotlashish jarayonlarida axborot makonining o'zgarishini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Axborot va axborot makonining metodologik xarakteri va ahamiyati falsafiy jihatdan o'rganilganda, avvalo "axborot" tushunchasining mazmun-mohiyati, genezisi va uning falsafiy talqini xususida fikr yuritish lozim bo'ladi.

Axborot (lotincha "informatio" – tushuntirmoq, bayon etmoq degan ma'noga ega) zamonaviy fan, falsafa va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, dastlab kishilar tomonidan og'zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma'lumot sifatida ta'rif va tasnif etilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ma'lumki, Norbert Viner birinchi bo'lib, axborotni jismoniy o'zgaruvchi miqdor sifatida qabul qilish taklifini ilgari surgan edi. Uning fikricha, jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha



## FALSAFA

boshqaruv va aloqa jarayonlariga axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida qaraladi [1.24.]. Biroq aloqaning mazmuni axborot qay tarzda berilganiga bog'liq emas.

Axborotni turli ko'rinishlarda, masalan, yozma ravishda, og'zaki, harakatdagi rasmlar va boshqa ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Shu sababli, ajdodlarimiz axborotni har xil toshlarni turli shaklda joylashtirish yordamida, so'ngra papirus yaproqlariga axborotni yozish orqali saqlashgan. Keyinchalik axborot qog'oz kitoblarda nashr etiladigan bo'ldi. Undan keyin esa, mos qurilmalar kashf etilgach, axborotni saqlash uchun fotoplyonka, gramplastinka, magnit plyonka, hozirgi vaqtda esa turli disklar va qo'shimcha xotira qurilmalari qo'llanila boshlandi.

XXI asr haqqoniy ravishda axborot inqilobi asri, degan nom olgan. Bu asrdagi axborot inqilobining asosini axborot uzatishda tezlik va hajm jihatdan misli ko'rilmagan texnologiyalar rivoji tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, uzatilayotgan turli axborotlardagi texnologik portlash o'zining obyektiv manbalariga ham ega. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining ko'p asrlik evolyutsiyasida haqiqatan ham olamshumul kashfiyotlar mavjud. Bular jumlasiga quydagilarni kiritish mumkin: telegraf va rotatsion tipografik mashinaning yaratilishi, telefon, radio, simsiz telegraf, televideniye. 1946-yilda AQShning Sent-Luis shahrida radiotelefon aloqa yaratilgan, bu uyali aloqaning ilk ko'rinishi hisoblanadi. Aynan ular keyingi axborot va axborotlashtirish sohasidagi olamshumul voqea 1986-yil Internetning paydo bo'lishiga olib kelgan [4.13.]. O'z navbatida, axborot sohasidagi inqilobiy o'zgarishlar uning milliy modernizatsiyalashgan masalalarini ham o'rganishga keng yo'l ochib berdi [3.20.].

Axborot to'g'risidagi ma'lumotni amerikalik olim R.Xartli 1928-yilda texnik aloqa kanallari bo'yab tarqatuvchi ma'lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun ilk marotaba axborot tushunchasini ilmiy muomalada qo'lladi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

"Axborot" tushunchasiga atroflicha yondashish va aniq miqdor o'lchovi paydo bo'lishi axborotni o'rganishga katta qiziqish uyg'otdi. XX asrning 60-yillaridagi ko'plab tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni shu davrda axborotlarni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Axborotni mustaqil o'rganish mumkin, - degan g'oya ilm-fanda axborot har qanday tuzumni boshqarish jarayoniga, mustahkamligi va yashay olishini ta'minlashga bevosita aloqadorligini isbotlagan kibernetika bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchaning "aloqa" va "boshqaruv" tushunchalari bilan birga keng qo'llanishiga olib keldi. Kibernetikaning asosiy bo'limlaridan biri axborot nazariyasi bo'lib, unda axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish usullari tadqiq etiladi. Biroq axborot nazariyasi aniqlanish aspekti bo'yicha kibernetikadan kengroqdir.

Hozirgi kunda axborot nazariyasi ilmiy-metodologik jihatdan ham taraqqiy etgan, unga J. Fon Neyman, N.Viner, K.Shenon kabi olimlar asos solgan. Ular bir-biridan xabarsiz holda axborotning statistik-miqdoriy jihatlarni aniqlaganlar. Bu o'rinda K.Shenonning "Aloqaning matematik nazariyasi" asari katta rol o'ynaydi. Ayni shu davrlarda N.Vinerning "Hayvonot va mashina", "Kibernetika yoki boshqaruv" asarlari e'lon qilingan. Bu asarlarda asosan axborot nazariyasi haqida fikr yuritiladi. Axborot nazariyasining falsafiy-metodologik muammolari orasida markaziy o'rinni egallaydigan masalalaridan biri "axborot" tushunchasidir. Bu tushuncha ustida tadqiqot olib borgan D.I.Dubrovskiy "axborot – falsafiy kategoriya, chunki u o'zida insonning fenomenologik bilimlarini ham ifoda etadi", degan fikrni bildirib o'tadi [2.156.].

"Axborot" tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilgan S.B.Lukovkinning fikricha, zamonaviy bosqichda materiya atributi sifatida axborotning umumfalsafiy muammosi uzil-kesil yechim topgan emas [6.18.]. Bu masala, o'z navbatida, atributiv va funksional yondashuvlar o'rtasidagi bahslar mavzuini tashkil qiladi. Shu ma'noda, funksional yondashuv tarafdorlari axborot fenomenini bilish subyekting mavjudligi bilan bog'lab, uning noorganik tizimlar darajasida funktsionalligini rad etadi. Atributiv yondashuv tarafdorlari esa axborot – umumiy xarakteristika, organik va noorganik tabiat materiyasining atributi, degan xulosaga keladilar.

Fikrimizcha, mazkur muammolarning yana boshqa birlamchi sabablari ham mavjud. Jumladan, G.Jdanovning fikricha, "jonli olamning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganish uchun "materiya" va "harakat meyor" (energiya) tushunchalari yetarli emas. Bu butunlay yangi axborot tushunchasining qabul qilinishini taqozo etadi".

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda axborot tushunchasining ta'riflarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:



- "axborotning paydo bo'lishi hayot fenomeni bilan bog'liq";
- "axborot subyektning maqsadli faoliyati bilan bog'liq";
- "axborot tartiblangan, tashkillashgan sharoitlarda vujudga keladi";

Tadqiqotchi olim V.Korogodin esa axborotni ma'lum bir algoritm sifatida izohlaydi. Darhaqiqat, axborot algoritmgaga asoslangan bo'lib, unda ma'lum bir uzviylik aks etadi. Chunki "algoritm" tushunchasi "qat'iy belgilangan qoidalarga muvofiq bajariladigan har qanday hisoblash tizimining umumiy nomlanishini, aniq vazifani bajarishda ketma-ketlik bilan amalga oshiriladigan formal qoidalar to'plamini" ifodalaydi. Ammo, bizning fikrimizcha, algoritm ilmiy bilish usuli sifatida axborot kelib chiqishning mexanizmini aniqlab bermaydi.

Ta'kidlash lozimki, axborot, bilish jarayonining fenomeni sifatida birinchi bo'lib biologiya fanlarida qo'llanila boshlandi. G.Kastler birinchilardan bo'lib axborot nazariyasini biologiyada qo'llagan. Muallif nihoyatda nozik va unchalik ravshan bo'lmagan xaos(tartibsizlik)dan murakkab tartib hamda axborot hosil bo'lishi jarayonlarining mohiyati to'g'risidagi fikrlarini bayon qilgan. Organik tuzilmalarning paydo bo'lishi, qanday qilib jonsiz tabiatdan hayotning kelib chiqishi, jonli va jonsiz tabiat orasidagi farq muammolari insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Hayotning paydo bo'lishi, uning fikriga ko'ra, "axborot vujudga kelishining natijasida paydo bo'ladi" [5.19.].

Axborot makonining vujudga kelishini o'rganishda XX asrning 70-yillaridagi o'z-o'zini tashkillashtiruvchi materiya to'g'risidagi yangi ta'limot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni aksariyat biologik tuzilmalarning tashkil topishi jonsiz materiyalar tuzilmasining paydo bo'lishidan aslo farq qilmaydi. Shu sababli ham axborotning ilmiy o'rganilishida materiyani muvozanat holatidan uzoqda o'z-o'zini tashkillashtirish hodisasining kashf etilishi muhim rol o'ynaydi deb hisoblash mumkin. Chunki axborot o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimlarning muhim tarkibiy qismidir. Xotira, faoliyat dasturi, o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bioijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi. Odatda, axborot nazariyasidan foydalanilgan ishlarda faqat "axborot miqdori" tushunchasi qo'llanilgan.

Umuman olganda, biologik muammolarning nazariy-fizikaga oid tadqiqotlari muvozanatsiz termodinamika va axborot nazariyasiga asoslangan. M.Eygen rivojlanish jarayonlarini chizikli termodinamika doirasida, ya'ni muvozanat holatida mutlaqo o'rganish mumkin emasligini aniq ko'rsatib bergan. G.Kastlarning axborot nazariyasiga asoslanganligi bu yerda jalb etilgan ilmiy asoslarning doirasi kengayishiga olib keladi. Eygen selektiv qadriyat sifatida aniqlanadigan axborot qadr-qimmatiga asoslangan makromolekulalar evolyutsiyasida tanlanish nazariyasini taklif etadi. Selektiv qadr-qimmat aniq parametrlar orqali ifodalanadi. Hayot, tirik tabiatning paydo bo'lishi, tirik tabiatda axborot va o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlarining aloqadorligi, axborot nazariyasi va muvozanatsiz termodinamik yondashuvlarni qo'llash masalalariga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ko'pchiligida biologik tizimlarga nisbatan o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlarida axborotning paydo bo'lishi muammosi hamda uning ahamiyati o'rganiladi.

Sifatli axborot xabarning ma'nosi va baholanishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa semantik jihat deb ataladi. Axborotni kodlar orqali uzatish bilan bog'liq murakkab muammolarni chetlab o'tib shuni ta'kidlash kerakki, bu simvollarning ko'pligi hamda elementar belgi va simvollar o'rtasida aniq muvofiqlik mavjud.

### XULOSA

Xulosa qilganda, axborotning gnoseologik asoslari uning inson faoliyati ta'sirida ratsionallashtirilishi va izomorfizm g'oyalarining taraqqiy etishi bilan chambarchas bog'liq – "axborot" tushunchasi ontologik jihatdan obyektiv makon-zamon transformatsiyasi va virtual borliqni ifodalaydi.

Gnoseologik ma'noda esa, axborot tashqi va ichki voqelikka oid turli belgilar, grafiklar, xabarlar va boshqa shu kabi intersub'yektiv aloqalar interpretatsiyasi hisoblanadi.

Axborot tushunchasining kelib chiqishi barcha o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlari bilan bog'liq bo'lib, biologiya uchun axborotning miqdori emas, balki qadr-qimmat muhimdir.

Gnoseologik jihatdan ham axborotning qadr-qimmat va bahosi o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlari tomonidan generatsiya qilinadi.

Axborot tushunchasining ilmiy o'rganilishida o'z-o'zini tashkillashtirish hodisasining kashf etilishi muhim rol o'ynaydi, chunki, axborot o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizimlarning muhim tarkibiy qismidir.

Axborot jamiyat uchun faqat texnik muloqot emas, balki insonlararo muloqotda bilim almashinuviga ta'sir ko'rsatadigan obyektiv omildir.

## FALSAFA

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.24.
2. Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В. Категория информации (философский обзор) // Философские науки. – Москва, 1976. – № 1. – С.156.
3. Хоц А.Ю., Аксюмов Б.В. Информационная революция в контексте трансформации современной культуры // Проблемы философии культуры: Сборник статей. – Ставрополь: СГУ, 1999. – С. 20-24.
4. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. – М.: Дашков и К, 2003. – С.13.
5. Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – М., 1967. – С.19.
6. Луковкин С.Б. Проблемы становления информационного общества в современной философии: Автореф. дисс. Канд.филос.наук. – Мурманск, 2006. – С.18.